



UDK:86(89.12)

Yulduz XOLXUJAYEVA,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: Xolxujayeva91@mail.ru

DEMOGRAPHIC CHANGES IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY - EARLY 20TH CENTURY

Annotation

This research article describes the demographic changes that took place in the Turkestan region in the second half of the 19th - early 20th centuries. Including: an analysis of the initial statistical figures on the demographics of the population, systematic collection of statistics on the population in the Turkestan region, demographic analysis of the population living in the mint. According to the calculations carried out, the ethno-confessional composition of the population in cities and villages was also subjected to analysis on the basis of valuable documents on the basis of land, household and hearth calculations.

Key words: Turkestan territory, statistics, demography, steppe population, Russian sources, Ethnos, ethnic composition of the population, steppe and nomadic population, number, national composition, classifications.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ПРОИЗОШЕДШИЕ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной исследовательской статье изложены данные о демографических изменениях, произошедших в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX века. В частности: описан анализ исходных статистических данных по демографии населения, работа по систематическому сбору статистических данных по населению Туркестанского края, работа по демографическому анализу населения, проживающего в минте. По проведенным подсчетам, этноконфессиональный состав населения в городах и селах также подвергался анализу на основе ценных документов, которые были определены на основе земельных, квартирных и отчетных подсчетов.

Ключевые слова: Туркестанский край, статистика, демография, оседлое население, русские источники, этносы, этнический состав населения, оседлое и кочевое население, численность, национальный состав, классификации.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA KECHGAN DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida kechgan demografik o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan. Jumladan: Aholi demografiyasi bo'yicha dastlabki statistik raqamlar tahlil qilinganligi, Turkiston o'lkasida aholi bo'yicha statistik ma'lumotlarni tizimli to'plash ishlari, mintada yashab kelayotgan aholini demografik jihatdan tahlil qilish ishlari bayon etilgan. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, shahar va qishloqlarda aholining etnik-konfessional tarkibi ham yer, xonadon va o'tov hisob-kitoblari asosida aniqlanganligi to'g'risidagi qimmatli hujjatlar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, statistika, demografiya, o'troq aholi, rus manbalari, etnoslar, aholining etnik tarkibi, o'troq va ko'chmanchi aholi, soni, milliy tarkib, tasniflar.

Kirish. Turkistonda rus ma'muriyati tomonidan tashkil etilgan aholi demografiyasi to'g'risidagi hisoblash tizimi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Lekin umuman olganda, bu o'sha davrda imperiyaning aholini ro'yxatga olish tizimi doirasida rivojlangan edi. Bunga ko'ra, hukumat aholi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni olishning turli manbalariga murojaat qilgan, xususan, ma'muriy-politsiya hisoblari, mahalliy aholini ro'yxatga olish va tug'ilish reyestrilarida qayd etilgan ma'lumotlar shular jumlasidan hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston aholisi tarixini yorituvchi turli manbalar, jumladan arxiv hujjatlari, statistik nashrlar, to'plamlar, hisobotlar va davriy matbuot nashrlar tadqiqot oldiga qo'yilgan boshqa muhim vazifalarni yechishga xizmat qildi. Turkiston general-gubernatorligining viloyatlari kesimida aholisi soni va ularning yillar kesimida o'sish dinamikasi, milliy va diniy tarkibi va boshqa demografik ko'rsatkichlar, xalqlar munosabati bilan bog'liq masalalar shular jumlasidan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, o'sha davr statistik nashrlarida xalqlarning milliy, etnik bo'linishga bog'liq chalkashliklar mavjudligi ko'zga tashlanadi, bu o'sha davrda yuritilgan siyosiy mulohazalar,

etnografik yondoshuvlar natijasi ekanligidan guvohlik beradi. Turkistonda rus ma'muriyati tomonidan tashkil etilgan aholi demografiyasi to'g'risidagi hisoblash tizimi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Mazkur maqola tarixchi olimlar jumladan, "Киселев В. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Мургазаева Р., Салиев А". Davriy gazetalar "Туркестанская ведомости" hamda arxiv hujjatlarini tadqiqotga tortilishi asosida yoritilgan. Quyida ilmiy ahamiyati yuqori bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida maqola yoritilgan

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiston o'lkasida aholi bo'yicha statistik ma'lumotlarni tizimli to'plash ishlari Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan davrdan boshlangan edi. Aholini ro'yxatga olishni tashkil etgan mustamlakachi hokimiyat vakillari, birinchi navbatda, o'zlarining mustamlakachilik maqsadlarini ko'zlashgan. Xususan, bunda aholi to'g'risidagi ma'lumotlar boshqaruv tizimini tashkil etish, ma'muriy-hududiy chegaralash, mahalliy aholini soliqqa tortish, shuningdek, mustamlaka hudud uchun rejalashtirilgan boshqa siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy kabi manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilgan edi.

Turkistonda rus ma'muriyati tomonidan tashkil etilgan aholi demografiyasi to'g'risidagi hisoblash tizimi ham o'ziga

xos xususiyatlarga ega edi. Lekin umuman olganda, bu o'sha davrda imperiyaning aholini ro'yxatga olish tizimi doirasida rivojlangan edi. Bunga ko'ra, hukumat aholi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni olishning turli manbalariga murojaat qilgan, xususan, ma'muriy-polisiya hisoblari, mahalliy aholini ro'yxatga olish va tug'ilish reyestrilarida qayd etilgan ma'lumotlar shular jumlasidan hisoblangan.

O'lka hududida amalga oshirilgan rasmiy ma'muriy-harbiy hisoblar asosan, soliq tizimiga xos xususiyatlangan bo'lib, bunda Rossiyaning Yevropa qismidan farqli ravishda, aholi jon boshiga emas, balki xo'jalikni soliqqa tortish bilan xarakterlangan[1]. Bunga ko'ra, ma'muriyat aholi ro'yxatini emas, balki xonadon va o'tov egalari ro'yxatini yuritishgan. Shunga muvofiq tarzda, tashkiliy komissiyalar a'zolari 1867-yil dekabrda 1869 yil martigacha Sirdaryo viloyati hududida, 1872-yilda Zarafshon okrugida hamda 1876-1877 yillarda Farg'ona viloyati va Amudaryo bo'limida o'z ishlarini olib bordilar.

Tahlil va natijalar. Aholi demografiyasi bo'yicha dastlabki statistik raqamlar tahlil qilinganda, 1867-yilda Yettisuv, Sirdaryo va Zarafshon okruglaridan iborat Turkiston hududida aholi soni 1,460.000 ming kishi sanalgan. Bu davrda o'lka aholisi tarkibida ko'chmanchilar ko'p sonli bo'lib, ular 1,085.000 ming nafar va o'troq aholi esa 375.000 ming nafardan iborat hisoblangan[2]. O'troq aholi deyarli janubiy uyezdlar bo'lgan Qurama, Toshkent, Jizzax, Xo'jand va

№	Viloyatlar (har 1000 kishi hisobiga)	Shahar aholisi	Uyezdlar bo'yicha aholi	
			o'troq	ko'chmanchi
	Yettisuv (Quljin tumanisiz)	20	62	918
	Sirdaryo	141	291	568
	Farg'ona	181	602	217
	Zarafshon okrugi	136	864	-
	Amudaryo bo'limi	20	201	779
	General-gubernatorlik bo'yicha	106	366	518

Shu davrda o'lka shaharlarida yashovchi aholi soni 360.000 ga yaqin kishi bo'lib, bu mahalliy aholining taxminan 11 % ga yaqin bo'lgan. Biroq gubernatorlikning janubiy madaniy vohalarida o'troq aholi umumiy aholini 85 % ini tashkil etgan holda, shahar aholisi kamida 20 % iborat edi[5].

“Turkestanskiye vedomosti” gazetasida qayd etilishicha, 1890-yilga kelib hukumat vakillari tomonidan: “so'nggi yillardagi ayrim iqtisodiy o'zgarishlar Turkiston o'lkasida shahar aholisining soniga va xususan, u yoki bu qatlamning nisbatan ustunligiga ta'sir qilishi muqarrar. Shunday ekan, hozirda Toshkent, Samarqand, Marg'ilon kabi asosiy markazlarimiz to'g'risida, hech bo'lmaganda, aholi

№	Uchastkalar	O'zbek (xonadon his.)	Qoraqalpoq	Qozoq	Turkman	Sart	Fors	Arab	Tatar
1	Sho'raxon	2829	248	2462	1103	1	191	62	3
2	Chimboy	-	10738	4237	-	-	-	-	-
	Jami	2829	10986	6699	1103	1	191	62	3

1897-yilga kelib, 5,280.983 nafarga yetgan Turkiston aholisining viloyatlar kesimidagi taqsimotiga nazar tashlasak, ko'p sonli xalq Farg'ona viloyatiga 1,572.214 kishi, so'ng Sirdaryo viloyati 1,478.398 kishi, keyin Samarqand viloyati 860,021 kishi, undan keyin Yettisuv viloyati 987,863 kishi va Kaspiyorti viloyatiga 382,487 ming kishi to'g'ri kelgan.

№	Uyezdlar nomi	Jami aholi	Qishloq	Shahar	Erkakning ayol. nisb. (1000)	Joy kengligi verst kv.
1	Toshkent	448.493	292.820	155.673	811	38.870
2	Avliyoota	276.169	264.447	11.722	844	65.420
3	Kazalinsk	145.541	132.956	7.585	917	59.800
4	Perovsk	133.663	128.605	5.058	902	65.840
5	Chimkent	285.059	262.612	22.447	807	124.950
6	Amudaryo b.	194.473	191.362	3.111	988	97.960
	Jami	1,478.398	1,272.802	205.596	855	452.840

Viloyatga rus dehqonlarining ko'chirilishi 1876-yilda boshlangan. 1897-yilga kelib viloyatda jami 55 ta rus posyolkalari mavjud bo'lgan. Ro'yxat ma'lumotida “sartlar” asosan Toshkent va Toshkent uyezdiga qarashli qishloqlarda, tojiklar Toshkent uyezdining tog'li hududlarida, qozoqlar Avliyoota uyezdining tog'li qismi hamda o'zbeklar va qoraqalpoqlar Amudaryo bo'limida joylashganligi qayd

Zarafshon okruglarida yashagan. Ko'chmanchi aholi esa, butun Yettisuv viloyati hamda Sirdaryo viloyatining Avliyoota, Chimkent, Perovskiy va Kazalinsk uyezlarida istiqomat qilgan.

O'lka bosib olingandan so'ng bir qancha shaharlar chor qonunchiligi bilan ushbu unvonda rasman ro'yxatga olingan. Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on va boshqalar shahar maqomini oldi. Ularning barchasi, qoida tariqasida, birinchi navbatda, tuman yoki tuman markazining vazifalarini bajargan. Shu bilan birga, ma'muriy vazifalarga ega bo'lmagan ko'plab aholi punktlari (masalan, Chust, Denov, Shahrisabz va boshqalar) qishloq manzilgohlari toifasida qolgan[3].

Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi, kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi, mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashishi, temir yo'llarning qurilishi mintaqadagi shaharlarning rivojlanishiga obyektiv yordam berdi. Biroq boshqa tomondan, Rossiya mintaqaning sanoat rivojlanishini sekinlashtirib, uni metropoliyaning agrar, xom ashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida saqlab qolganligi shahar va qishloqlar demografiyasida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

1870-yillar o'rtasiga kelib, Turkiston general-gubernatorligi viloyatlari kesimida har ming nafar kishiga shahar va qishloq aholisi, o'troq va ko'chmanchilar ulushi quyidagicha to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi[4]:

soni to'g'risida to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish katta qiziqish uyg'otadi”[6], deyilgan edi.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, shahar va qishloqlarda aholining etnik-konfessional tarkibi ham yer, xonadon va o'tov hisob-kitoblari asosida aniqlangan, shuning uchun XIX asrning 60-90 yillarida Turkistonning tub xalqlari soni haqida taxminiy ma'lumotlar berilgan. Misol uchun, arxiv hujjatiga ko'ra 1875-yilda ikkita uchastkaga bo'lingan Amudaryo bo'limida yashagan o'troq va ko'chmanchi aholining etnik tarkibi soni aynan xonadon hisobida aniqlangan[7]:

Albatta bunda Kaspiyorti viloyati 1899 yildan Turkiston tarkibiga qo'shilishiga qaramasdan, bu raqamlar deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Aholi ko'pligi bo'yicha Farg'ona viloyatidan so'ng turgan Sirdaryo viloyati uyezdleri, shahar va qishloqlari kesimida aholi quyidagicha taqsimlangan edi:

etiladi[8]. Shuningdek, yahudiylar, tatarlar va hindlar shaharlarda istiqomat qilgan va viloyat aholisining yarmidan ko'pini ko'chmanchilar tashkil etgan.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston tarixida urbanizatsiya jarayonlarining biroz tezlashishi, shahar hayotining rivojlanishi jarayonlari ko'zga tashlanadi. Albatta,

bu davrda mintaqa shaharlari turlicha rivojlanish sharoitlariga ega edi. Masalan, Yettisuv viloyati va Sirdaryo viloyatining shimoli-sharqidagi shaharlar asosan, ularga tutash yerlarning ma'muriy markazlari sifatida, Rossiya markaziy hududlaridan ma'lum sonda rus dehqonlarining ko'chirilishi va bir qator rus manzilgohlarining tashkil topishi bilan rivojlanib bordi. Ba'zi shaharlar uchun savdo va hunarmandchilik shaharni asosini tashkil etuvchi asosiy omillar bo'lib qoldi. Boshqa shaharlarda sanoat rivojlanishi kabi yangi shahar shakllantiruvchi omillarning ta'sirini boshdan kechira boshladi.

Aholi sonining tug'ilish va o'lim holatiga nisbatini general-gubernatorlik markazi Toshkent misolida qaraydigan bo'lsak, 1880-1882 yillarda quyidagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin. 1880-yilda shaharda jami 41.819 kishi yashagan, 565 ta tug'ilish, shundan 265 tasi erkak va 300 tasi ayolga to'g'ri kelgan va o'lim holati jami 428 ta (201 nafar erkak va 227 nafar ayol) bo'lgan[9]. Ikki yil davomida shaharda aholi soni ikki barobarga 80.326 kishiga ko'paygan. Shundan erkaklar 46.257 va ayollar 34.069 tani tashkil etgan. Shu raqamlarda tug'ilish 2470 ta va o'lim holati 1753 ta to'g'ri kelib, oradagi farq 717 tani tashkil etgan[10].

Xulosa va takliflar. Ushbu bob bo'yicha qisqacha xulosa qilganda, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachiligi siyosiy, shu bilan birga, rus kapitalining iqtisodiy hukmronligi ham edi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko'chirish, ruslashtirish siyosati, Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi, xom-ashyo yetkazish, kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi, mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'lka shahar va qishloqlarida demografik o'zgarishlarni sodir bo'lishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar Rossiya imperiyasidan ko'chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sug'oriladigan yerlarga ehtiyoji, aholi sonining ko'payib borishi, xo'jalik turmush tarzining o'zgarishi, ya'ni o'troqlashuv jarayonining kuchayishi, tug'ilish va o'lim, mehnat taqsimoti, bandlik va boshqa sohalardagi shu kabi demografik muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, bu muammolar mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Киселев В. Демографическая статистика в колониальном Туркестане во второй половине XIX века. // Научный сборник: "Археология и история Центральной Азии". К 70 летию со дня рождения акад. Ю.Бурякова. – Самарканд, 2004. – С.5.
2. Население Туркестанского края // Туркестанская ведомости, 1870 год, 10 июнь. –С.22.
3. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Ташкент: Университет, 2002. –С.24.
4. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства., –С.32–33.
5. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства., –С.32–33.
6. Туркестанские ведомости. 16-го января 1890 год, №3.
7. O'z MA, I–1–jamg'arma, 11–ro'uxat, 385–yig'ma jild, 31–32–varaqlar.
8. Первая Всеобщая перепись население Российской империи 1897 г. Сырь-дарьинская область. –С IV.
9. O'z MA, I–36–jamg'arma, 1–ro'uxat, 1919–yig'ma jild, 66, 106 varaqlar.
10. O'z MA, I–17–jamg'arma, 2–ro'uxat, 496–yig'ma jild, 1–5 varaqlar.